



**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ҚУРИЛИШ ВА УЙ-ЖОЙ КОММУНАЛ  
ХЎЖАЛИГИ ВАЗИРИНИНГ  
БҮЙРУГИ**

**ШНҚ 2.08.01-19 “Тураг жой бинолари” шаҳарсозлик нормалари ва қоидаларига  
қўшимчалар киритиш тўғрисида**

Ўзбекистон Республикасининг Шаҳарсозлик кодексига мувофиқ буюраман:

1. ШНҚ 2.08.01-19 “Тураг жой бинолари” шаҳарсозлик нормалари ва қоидаларига иловага мувофиқ қўшимчалар киритилсин.
2. Мазкур буйруқ Ўзбекистон Республикаси Фавқулодда вазиятлар вазирлиги, Энергетика вазирлиги, Рақамли технологиялар вазирлиги, Тоғ-кон саноати ва геология вазирлиги, “Ўзсаноатқурилишматериаллари” уюшмаси ҳамда “Ўзелтехсаноат” уюшмаси билан келишилган.
- 3.. Ушбу буйруқ расмий эълон қилинган кундан эътиборан кучга киради.

**Вазир**



**Zakirov B. I.**

Тошкент ш.  
2023 йил 13 октябрь,  
341 сон

**Келишилди:**



**Baxodirov A. A.**

Тошкент ш.  
2023 йил 22 сентябрь,

**Фавқулодда вазиятлар вазири**

Тошкент ш.  
2023 йил 19 сентябрь,

**Вазир**



**Kuldashev A. X.**

Тошкент ш.  
2023 йил 14 сентябрь,

**Вазир**



**Mirzamahmudov J. T.**

Тошкент ш.  
2023 йил 28 сентябрь,

**O‘zbekiston Respublikasi  
Raqamli texnologiyalar vaziri**

Тошкент ш.  
2023 йил 29 сентябрь,

**Бошқарув раисининг биринчи  
ўринбосари**

Тошкент ш.  
2023 йил 04 октябрь,



**Islamov B. F.**



**Shermatov Sh. X.**



**Xashimov M. R.**

Ўзбекистон Республикаси  
курилиш ва уй-жой коммунал  
хўжалиги вазирининг  
2023 йил 13 октябрдаги  
341-сон буйруғига  
ИЛОВА

**ШНҚ 2.08.01-19 “Туар жой бинолари” шахарсозлик нормалари  
ва қоидаларига киритилаётган қўшимчалар**

**1.** 7.3-банд қўйидаги мазмундаги хатбоши билан тўлдирилсин:

“Туар жой биноларида ўрнатиладиган лифтлар ГОСТ 5746-2015, ГОСТ 33984.1-2016 ва ГОСТ 28911-2015да белгиланган талабларга мувофиқ бўлиши лозим.”.

**2.** 7-боб қўйидаги мазмундаги 7.5 – 7.11-бандлар билан тўлдирилсин:

“7.5. Лифт ускунасидан фойдаланувчиларнинг ҳавфсизлигини, шунингдек авария ҳолатларида фойдаланувчилар ва қутқарув хизмати ўртасида доимий алоқани таъминлаш учун лифт шахталари алоқа воситалари (видео-тасвир узатиш қурилмалари, лифт ускуналарининг техник ҳолатини мониторинг қилиш ва авария ҳолатларини реал вақт режимида қайд этувчи диспетчерлик блоки ва бошқалар) билан жиҳозланишига имконият яратилган бўлиши лозим.

7.6. Туар жой биноларида лифтлар ўрнатилишида ШНҚ 2.07.02-22да белгиланган талабларга риоя қилиш зарур.

7.7. Лифтнинг ён деворларида  $900 \pm 100$  mm баландликда тутқичлар ўрнатилган бўлиши керак.

7.8. Кўп квартирали уйларнинг чиқиши эшиклари лифт эшиги билан қарама-карши (тўғридан-тўғри) ҳолатда жойлашмаслиги, шунингдек лифт эшиклари ва ён деворларнинг ранги бир-биридан ажralиб туриши лозим.

7.9. Лифтларни кўтариш механизmlаридан чиқадиган шовқин эшитилмаслиги учун шахталар шовқин изоляцияси билан жиҳозланиши лозим.

7.10. Лифтнинг кабинаси, посангиси ва мувозанатловчи мосламалари битта шахта ичida жойлашган бўлиши керак.

7.11. Лифт шахтаси қўзгалмас (стационар) электр ёритгич билан таъминланган бўлиши, бунда таъмирлаш ишлари давомида  $1 m^2$  учун камида 50lx ёруғлик бўлиши зарур.

Агар ташқи ёритиш шахта ичida  $1 m^2$  учун камида 50 lx ёруғликни таъминласа, ойнавандланган тўр билан ўралган ёки қисман ўралган лифт шахталари қўзгалмас (стационар) электр ёритиш ускуналари билан жиҳозланиши талаб этилмайди.”.



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
ADLIYA VAZIRLIGI**

**TEXNIK JIHATDAN  
TARTIBGA SOLISH  
SOHASIDAGI NORMATIV  
HUJJATLARNING  
HUQUQIY EKSPERTIZASI  
NATIJALARI BO'YICHA  
XULOSA**

**219 - son**

***1. Hujjatning turi:***

Shaharsozlik normalari hamda qoidalari

***2. Hujjatning nomi***

ШНҚ 2.08.01-19 “Турар жой бинолари” шаҳарсозлик нормалари ва қоидаларига киритилаётган кўшимча ва ўзгартиришлар

***3. Hujjatni tasdiqlagan organ va u kiritilgan sana haqidagi ma'lumot***

Mazkur hujjat O'zbekiston Respublikasi qurilish va uy-joy communal xo'jaligi vaziri tomonidan 2023-yil 13-oktabrda 341-son bilan tasdiqlangan.

***4. Hujjat bo'yicha taklif va e'tirozlar***

Mazkur hujjat shaharsozlik normalari va qoidalari qo'yiladigan talablar asosida kiritilganligi sababli taklif va e'tirozlar mavjud emas.

Shuningdek, ushbu hujjat O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi, Energetika vazirligi, Raqamli texnologiyalar vazirligi, Tog'-kon sanoati va geologiya vazirligi, “O'zsanoatqurilishmateriallari” uyushmasi hamda “O'zeltexsanoat” uyushmasi bilan kelishilgan.

***5. Qonunchilik texnikasi qoidalariiga rioya qilinganligi***

Ushbu hujjat O'zbekiston Respublikasining Shaharsozlik kodeksi, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Davlat huquqiy siyosatini amalga oshirishda adliya organlari va muassasalari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida” 2020-yil 19-maydagi PF-5997-son Farmoni hamda Texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlarni tayyorlash, huquqiy ekspertizadan o'tkazish va hisobga olish qoidalarining (ro'yxat raqami 3344, 2021-yil 28-dekabr) talablariga javob beradi va qonunchilik hujjatlariga zid emas.

***6. Mas'ul ijrochi***

Idoraviy normativ-huquqiy hujjatlarni davlat ro'yxatidan o'tkazish boshqarmasi

Hujjatni huquqiy ekspertizadan o'tkazish natijasi bo'yicha

**XULOSA:**

Mazkur shaharsozlik normalari va qoidalari asosan “ShNQ 2.08.01-19 “Turar joy binolari” shaharsozlik normalari va qoidalari qo'shimchalar kiritish nazarda tutilmoxda.

Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasining qurilish sohasida islohotlarni chuqurlashtirishga doir qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2020-yil 14-martdagি PF-5963-sон Farmonining 4-bandida qurilish sohasidagi xalqaro normalar, qoidalar va standartlarni o‘rganish va tahlil qilish asosida milliy normativ hujjatlarni ular bilan uyg‘unlashtirish vazifasi belgilangan.

Shunga ko‘ra, taqdim etilgan hujjat bilan ShNQ 2.08.01-19 “Turar joy binolari” shaharsozlik normalari va qoidalariga lift uskunasidan foydalanuvchilarning xavfsizligini, shuningdek avariya holatlarida yo‘lovchilar va qutqaruv xizmati o‘rtasida doimiy aloqani ta’minlashga oid bo‘lgan talablar kiritish nazarda tutilmoqda.

Ta’kidlash lozimki, mazkur hujjatni huquqiy ekspertizadan o‘tkazishda unda texnik ko‘rinishdagi, shu jumladan hujjat mazmunining o‘zgarishiga olib kelmaydigan xatoliklar mavjudligi aniqlanganligi bois, ushbu xatoliklar Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligining 2023-yil 17-noyabrdagi 24-06/12012-sон xati hamda yuqoridagi Qoidalarning 71-bandiga asosan bartaraf etildi.

Yuqoridagilarga ko‘ra, “ShNQ 2.08.01-19 “Turar joy binolari” shaharsozlik normalari va qoidalariga qo‘srimchalar kiritish to‘g‘risida”gi buyruqni hisobga olish mumkin deb xulosa qilaman.

Vazir



**Tashkulov A. D.**  
2023 - yil 21 - noyabr